



## **ROMITAN TUMAN TOPONIMLARI TARIXIY MANBALARDA**

**Ergashova Laziza Akmal qizi,**

*Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida magistranti*  
[ergashovalaziza23@gmail.com](mailto:ergashovalaziza23@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15204498>

***Annotatsiya.** Joy nomlari hayotimizni, bizni o‘rab turgan atrofni aks ettiruvchi asosiy birlik bo‘lib, zamonaviy dunyoda mamlakatlar o‘rtasida turli xil iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy integratsiyani ta‘minlovchi muhim vositadir. Toponimlar tarixini o‘rganish millat tarixini, o‘tmishdagi siyosiy jarayonlarni, o‘ziga xos jihatlarni bilishga ko‘maklashadi. Bu maqolada Romitan tuman toponimlarining o‘rganilish tarixi haqida muhim ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, bu tumanning naqadar qadimiy shahar ekanligi asosli dalillar bilan isbotlangan.*

***Kalit so‘zlar:** Romitan, Romtin, Rom, Roma, Roman, Romush, Romushtepa.*

Inson yaralibdiki, uni o‘rab turgan barcha narsalarni qandaydir nomlar bilan atab kelgan. Toponimlar ham nomshunoslikning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ularni o‘rganish har millatning qadimiy tarixi bilan tanishishga imkon beradi.

Romitan nomi “Avesto” da keltirilgan zardushtiylik dinining ilohlaridan biri Rom nomidan olingan. Romitan atamasi turkiy mitan urug‘i nomidan kelib chiqqan degan taxminlar ham mavjud. Romitan O‘zbekiston va Sharqning eng qadimgi shaharlaridan biri hisoblanadi [2:9].

Romitan juda boy qadimiy o‘tmishga ega bo‘lib, ilk ma‘lumotlarni Abu Bakr Muxammad Ja‘far ibn Narshaxiyning “Buxoro tarixi” nomli kitobida uchratish mumkin. Fors tarixchisi Abu Ja‘far Muxammad ibn Jarir at-Tabariyning “at-Tabariy tarixi” asarida Romitanning arablar bosqini davri tarixiga oid, o‘rta asr arab geografi Istaxriy asarlarida esa Romitan va uning atrofidagi qishloqlar ma‘lumot berilgan.

Taniqli davlat arbobi va mohir sarkarda, Turon mamlakatining asoschisi va turkiy xalqlar bobokaloni Alp Er To‘nga [Afrosiyob] miloddan avvalgi VIII asrda Buxoroga yaqin joyda Romitan shahrini barpo etdi. Ba‘zi manbada Buxoro histori [shaharning qadimiy qismi]ga ham u asos solganligi haqida ma‘lumotlar mavjud. Bu haqida Narshaxiy qalamiga mansub “Buxoro tarixi” nomli asarda quyidagicha izoh berilgan: «Romtin [Romitan]. Bu katta bir ko‘handizga ega va mustahkam bir qishloq bo‘lib, Buxorodan qadimiyroqdir. Ba‘zi kitoblarda bu qishloqni Buxoro deb ataganlar. Bu qishloq o‘tmishda podshohlarning turar joylari bo‘lgan, [keyinroq esa] Buxoro shahri bino bo‘lgandan keyin, podshohlar qish faslidagina bu qishloqda turadigan bo‘ldilar... Bu qishloqni Afrosiyob bino qilgan. Afrosiyob har vaqt viloyatga kelganida shu qishloqdan boshqa joyda turmagan” [1:20].

“Buxoro tarixi” asarining Yangi Buxoro, ya‘ni Kogonda 1904-yil Mullo Sulton tomonidan nashr etilgan nusxasida Alp Er To‘nganing qizi va Romitan bilan bog‘liq



quyidagi rivoyat keltiriladi: «Aytadilarki, Afrosiyobning bir qizi bo‘lib, uning doimo boshi og‘rir edi. Romtinga kelib turib qolganidan keyin bu yerning hvosi muvofiq kelib dardan xalos bo‘ldi va bu joyga “Oromi tan” - “Tan oromi” deb nom qo‘ydi. Oddiy xalq esa buni “Romtin” deganlar[3:23].

Afrosiyob qurdirgan ko‘hna Romitan shahri hozirgi Buxorodan taxminan 20 km uzoqlikda bo‘lib, u vohaning go‘zal va xushmanzara yerida joylashgan. Bu yerda Alp Er To‘nga bilan birgalikda uning kattagina xonadoni, saroy amaldorlari, beklari va sarkardalari ham istiqomat qilgan. Biroq Romitan toponimini faqat xoqon qizining bosh og‘rig‘i kasalligiga da‘vo topishi bilan bog‘lik hodisaga asoslab qo‘yish ham unchalik to‘g‘ri emas. Shuningdek, Afrosiyob qurdirgan Romitan shahrining jug‘rofiy o‘rni hozirgi Romitan tumanining ma‘muriy markazi Romitan shahridan boshqa joyda bo‘lib, u xalq o‘rtasida Qo‘rg‘on [Romitan qo‘rg‘oni] nomi bilan mashhur. Bundan tashqari, Romushtepa xarobalari Jondor tumani hududida joylashgan.

Beruniyning fikricha, Xorazmda hukm surgan afrig‘iylar sulolasining shajarasi [xorazmshohlar] aynan Siyovushdan boshlangan [4:20]. “U [Afrosiyob] o‘zining Siyovush nomli kuyovini o‘ldirgan, Siyovushning Kayxusrav nomli o‘g‘li bo‘lib, u otasining qonini talab qilib ko‘p lashkar bilan bu viloyatga kelganida Afrosiyob shu Romtin qishlog‘ini hisor qilib turgan. Kayxusrav o‘z lashkari bilan ikki yil shu hisor atrofini o‘rab turdi va uning ro‘baro‘sigga bir qishloq bino qilib, u qishloqni “Romush” deb atadi. Bu qishloq hozirgacha obodondir. Kayxusrav Romush qishlog‘ida otashparastlar ibodatxonasini qurdi; otashparastlarning aytishlaricha, bu ibodatxona Buxorodagi otashparastlar ibodatxonalarining eng qadimiysidir. Kayxusrav ikki yildan keyin Afrosiyobni tutib o‘ldirdi. Afrosiyobning go‘ri Buxoroda Ma‘bad darvozasida raxmatli Xoja imom Abu Hafs Kabir tepaligiga tutashgan katta tepalik ustidadir”[1:23-24].

Narshaxiy o‘z asarida Abul Xasan Nishopuriydan keltirgan bu tarixiy dalillardan ko‘rinib turibdiki, Alp Er To‘nga bunyodkor podshoh bo‘lgan. Qadimgi Romitan va Buxoro qal‘alarini u qurdirgan. Bu viloyatga kelganida o‘zi asos solgan va podshohlarning doimiy qarorgoxi bo‘lgan Romitanda turgan. Narshaxiy, Tabariy, Nishopuriy kabi mo‘tabar Sharq tarixchilarining bu fikrlarini ulardan taxminan 100 – 150- yil keyin yashab o‘tgan buyuk vatandoshlarimiz Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib ham o‘z asarlarida tasdiqlashadi.

Narshaxiyning yozishicha, Kayxusrav Romush qishlog‘iga asos solgan. U Romushda Buxoro vohasidagi eng qadimiy zardushtiylar ibodatxonasini barpo etgan. Keyinchalik Romush qishlog‘i Buxoro vohasidagi yirik shaharga aylangan [bugungi paytda qadimgi shahar xarobalari bo‘lgan Romushtepa Buxoro viloyatining Jondor



tumani hududida joylashgan. Romitan shahridan Romushtepagacha bo‘lgan masofa 15 km hisoblanadi].

Shunday qilib, miloddan avvalgi IX - VIII asrlarda Turon va Eronda yuzaga kelgan davlat uyushmalarida hukmronlik qilgan qadimgi podsholik sulolasi - kayoniylar [kavilar] bilan bog‘lik voqealar jarayonida, xususan, kayoniylardan Kaykovus, Siyovush, Kayxusrav va Turon hukmdori Afrosiyob kabi shaxslar hayotida Romitan shahri muhim o‘rin tutadi. Narshaxiy, Beruniy, Nishopuriy kabi tarixchilar asarlarida, «Avesto» kitobi va Firdavsiyning «Shohnoma» dostonida Romitanning olis moziy qa‘ridagi tarixi tasvirlangan. Asrlar o‘tishi bilan Romitanda yuksalish va tanazzul o‘zaro almashib turdi. Bir vaqtlar Buxoro Sug‘d davlatining eng qadimiy va obod shaharlaridan biri bo‘lgan Romtin [Romitan] va Romush dushmanlar bosqini va o‘zaro urushlar natijasida bir necha marta vayronaga uchradi. Buxorxudotlar hokimligi [VI - VIII asrlar] davrida Turk xoqonligining shahzodasi El Arslon [Sheri Kishvar] Buxoro shahristonini qayta qurgan va 20 yil podshohlik qilgan. Narshaxiyning yozishicha, undan keyin bo‘lgan boshka podshoh davrida Romtin qishlog‘i qayta barpo etilgan. “Xitoy podshohining qizini kelin qilib Buxoroga olib kelganlarida uning jihozlari orasida Xitoydan bir butxona ham olib keldilar va uni Romtinga o‘rnatdilar” [1:17].

Romitan nomining kelib chiqishi haqida haligacha yakdil xulosaga kelinmagan. Shu o‘rinda eslatish joizki, shahar nomi o‘rta asr musulmon olimlari asarlarida turli ko‘rinishda yozilgan. Jumladan, Ibn Havqal [vaf. 976/978] hudud nomini “ar-Romitana”, al-Muqaddasiy “Aryomitan”, al-Balazuriy [820-892 yillarda yashagan] “Romdin” shaklida, as-Samo‘niy [1113-1166 yillarda yashagan] esa o‘zining “Nasabnoma” asarida “Romitan” yoki “Armitana” tarzida keltirgan[5,46-b.] . Ushbu toponimlar [ayniqsa, al-Muqaddasiy yozgan shakl] ba‘zi olimlar [mas., J.Markvart] tomonidan “ariy, oriy” nomli aholi guruhlari nomlari bilan bog‘lanadi. Shu nuqtayi nazardan, “mitan” atamasi “manzilgoh” ma’nosini anglatishi inobatga olinsa, hudud nomining “Oriylar qo‘rg‘oni” so‘zini anglatishi taxmin qilinadi.

Xullas, ko‘hna Romitanning tashkil topishi mil.avv. I ming yillikning birinchi yarmiga borib taqalishini ayta olamiz. Zarafshon va uning bir qancha irmoqlari yo‘lida joylashganligi aholi turmush tarzini va dehqonchilik munosabatlarini yaxshilab, hududning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi bir bo‘lagi sifatida shakllanishiga xizmat qilgan. Qulay joylashuv o‘rni va iqlimi uning asrlar davomida mintaqa iqtisodiy va ma‘muriy markazlaridan biri maqomiga ega bo‘lishiga imkon yaratdi. Shu jumladan, ushbu yuksak maqom o‘rta asrlar davrida ham shaharning strategik ahamiyatini oshirgan.

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Наршахий. Бухоро тарихи.
2. Rajabov Q. Narshaxiy, Tabariy va Mahmud ibn Vali Romitan to‘g‘risida, “Romitannoma”, №7-9,2007.
3. Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far Narshaxiy. Buxoro tarixi. Fors-tojik tilidan A.Rasulov tarjiması. – T.: Fan, 1966.
4. Абу Ращоп Беруний. Кадимги халклардан колган ёдгорликлар.
5. Ибн Ҳавқал. Мовароуннахр / араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С. Камолиддин, масъул муҳаррир Ф.С. Ҳасанов. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011.

